

**ZAMONDOSHLARINING MAQSUD SHAYXZODA TO‘G‘RISIDAGI FIKR
VA MULOHAZALARI**

Toshkent davlat transport universitetini

Avtomobil yo‘llari muhandisligi fakulteti

*YMAL-6 guruhi talabasi **Elmurodov Hamidillo Otabek o‘g‘li***

Elmurodovhamidillo@gmail.com

Annotatsiya: *Maqsud Shayxzoda o‘zbek adabiyoti tarixida o‘ziga xos ijodiy yo‘li va boy merosi bilan alohida o‘rin egallagan ijodkorlardan biridir. Ozarbayjonning Oqtosh shahrida ziyoli oilada dunyoga kelib, taqdir taqozosi bilan uning hayoti va ijodi O‘zbekiston bilan bog‘lanadi. Ushbu maqolada, serqirra ijodkor, ikki xalqning chinakam dilbandi bo‘lgan va ozar va o‘zbek adabiyotiga ulkan hissa qo‘shgan ijodkor Maqsud Shayxzoda faoliyati va ijodi haqida fikr va mulohazalar qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Maqsud Shayxzoda, o‘zbek adabiyoti, serqirra ijodkor, tarjima asarlar, ziyoli, taqdir taqozosi, dilbandi, merosi, ijodi, ta‘lim, tarjimonlik.*

Maqsud Shayxzoda 1908-yil 7-noyabrda Ozarbayjonning Oqtosh shahrida ziyoli oilada tug‘ilgan. Uning otasi Ma‘sumbek nafaqat shifokor, balki ilm-fan va adabiyotga ham chuqur mehr qo‘ygan kishi bo‘lib, oilada ilmiy va badiiy muhit shakllanishiga katta hissa qo‘shgan. Yosh Shayxzoda oilasidagi bu ma‘rifatli muhit ta‘sirida shakllandi. Shoirning otasi Ma‘sumbek bolalarning estetik zavqi va she‘riyatiga nisbatan havasini tarbiyalashga katta ahamiyat berar, hech erinmay bolalari bilan o‘zi shug‘illanar edi. Buni shoir shunday xotirlaydi: “Meni otam rahmatli o‘z zamonasining ilg‘or ziyolisi, doktori edi, odatda, bolalarga she‘r o‘qib berar va keyincha ayrim so‘zlarni aytib berib, shu so‘zga mos qofiya topishni bizlardan so‘rar edi. Qofiya ham vazn ohangiga qulog‘im o‘rganib ketib, men besh yasharligimda 8-10 misradan iborat bir masal to‘qiganim esimda. Albatta, muayyan fikr va sujetdan holi bo‘lgan bu masal “bo‘ri bilan olmaxon” haqida to‘qilgan edi.



Harqalay she'rga muhabbat umrimning ilk yillaridan boshlab qonimga, qalbimga, fikrimga singib ketganini jur'at bilan ayta olaman. Pushkin, Lermontov, Shekspir, Balzak, Firdavsiy va Navoiy asarlarini o'qib ulg'aydi. U yoshlik yillarida ilm olishga ishtiyoqi baland bo'lib, Boku Oliy pedagogika institutida tahsil oldi. Uning mehnat faoliyati esa Dog'istonda boshlanib, u yerda muallimlik, jurnalistika va adabiy faoliyat bilan shug'ullandi. Ammo, Maqsud Shayxzodaning hayot yo'li osoyishta bir tekisda kechmadi. U 1927-yilda millatchilikda ayblanib, qamaldi va 3 yil surgun jazosiga Toshkentga jo'natiladi. 1928-yilda Toshkentga keladi va uzoq vaqtdan so'ng ozodlikka chiqadi. Toshkentda yaxshi va insofli odamlar bilan inoqlashdi. So'ngra o'zbek tilini o'rganadi va o'zbek tilida ijod qila boshlaydi. Tez orada o'zbek adabiy hayotining faol ishtirokchisiga aylandi. Yaqin o'n yil ichida qator she'riy to'plamlari nashr ettirib, el og'ziga tushd. "Domla Shayxzoda", "Shayx aka" shoir va olim sifatida e'zozlandi. U dastlab turli gazeta va jurnallarda ishladi, keyinchalik esa Fanlar Qo'mitasining Til va adabiyot institutida ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritdi. U adabiyotga yangicha nazar bilan qarar, zamonaviy she'riyatga o'ziga xos ovoz olib kirgan ijodkor edi. Shayxzoda o'zbek mumtoz adabiyotini chuqur o'rganib, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodiy merosini ilmiy jihatdan tadqiq etdi. Uning ilmiy ishlari filologiya sohasida ham muhim o'rin tutadi. 1935-1938 yillarda Fanlar Qo'mitasi qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim sifatida ishladi. 1938-yildan umrining so'ngiga qadar Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining "O'zbek mumtoz adabiyoti" kafedrasida dotsent lavozimida xizmat qilib, malakali kadrlar yetishtirishga o'z hissasini qo'shdi.

Shayxzodaning adabiy faoliyati 1930-1940-yillar mobaynida birin-ketin uning dastlabki she'riy to'plamlari –"Loyiq soqchi"(1931), "O'n she'r" (1932), "Undoshlarim" (1933), "Uchinchi kitob" (1934) va "Jumhuriyat" (1935), "Yangi devon"(1936) she'riy to'plamlari adabiyotga o'ziga xos ovozga ega bo'lgan shoir kirib kelayotganidan darak berdi. Shoirning ijodi mustahkam milliy ruh, Vatanga bo'lgan sadoqat va insoniy qadriyatlarga chuqur hurmat bilan yo'g'rilgan edi.

"Maqsud Shayxzodaning she'riyat olami benihoya sertafakkur, mushohadalari teran, tuyg'ulari samimiy, u chindan ham mutafakkir shoir va olim.



Uning asarlarida badiiylik bilan ilmiy tafakkur tabiiy ravishda uyg'unlashgan. U zamonamizning atoqli so'z san'atkori" deya ta'rif bergan edi. (Oybek)

Meni aka deydilar.

Qo'shiqlarda olishuvlarda,

Jangnomada va ashulada.

O'tib ketdi yoshlik yillari,

Ko'p hikmatlar yig'dim kallada.

Kechdim shunday umr cho'lini,

Sakrab ketdim chorak asrdan.

Yaqinlashdi o'ttizga hayot,

To'ymadim men nozli she'rdan.

"Ta'qdir Maqsudni minglab tengqurlari singari hayot dengizining asov to'lqinlari qa'riga tashladi. U ba'zan dengizning quturgan to'lqinlariga qarshi tik borar, ba'zan esa, Sa'diy aytganidek, yuragini sokin mavjlar ixtiyoriga topshirar edi. Yigirma yoshida bu to'lqinlar uni qardosh O'zbekiston tuprog'iga keltirdi. Buyuk Ulug'bekning, Navoiyning muqaddas vatani Maqsudni o'z farzandidek mehribon quchog'iga oldi va uning ulkan shoirlik iste'dodiga qo'sh qanot baxsh etdi.

Maqsud o'zbek tili va san'atini, o'zbek adabiyotini astoydil muhabbat bilan o'rgandi. Bu qadim, boy madaniyat chashmasidan bahramand bo'lib, sovet xalqining yangi turmush va yangi madaniyat barpo etish yo'lidagi sharaflil kurashini qizg'in kuyladi, ko'ngillarga quvonch, shuurga fikr eltuvchi barkamol asarlar yaratdi" "Mirzo Ibrohimov, Ozarbayjon yozuvchisi".

"Men Maqsud og'a bilan bo'lgan uzoq yillik do'stona munosabatlar mobaynida shu narsaga amin va qoyil qoldimki, og'a-ziyoliga - ziyolinamo, olimga – olimlarcha, ishchiga – ishchisimon, dehqonga – dehqonlarcha, tolibi ilmlarga – g'amxo'r muallim sifa-tida muomala qilishning juda nozik «sir»larini bilar edi. Qaysi bir majlisda, qaysi davrada, qandayin doirada bo'lmasin shirin suhbat, dilkash, dildor, ulfatlar qadrini darhol o'z tasarrufiga ola bilardi. Men buni juda ko'p marotaba shohidi bo'lganman" Uning siymosida shu ikki ulug' qadimiy madaniyat sohibi bo'lmish o'zbek va ozariylarning aqlu zakovati, donoligi, oqil va donishmandligi,



erksevar intilishlari, tantilik va mehmonna-vozlik fazilatlarini ajoyib tarzda uyg'unlashgan, mujassamlashgan.

“Sulaymon Rustam, Ozarbayjon xalq shoiri, Mehnat qahramoni”.

“O'rtoq Navoiy” ballasidan

Hirotning eng tanho bir go'shasidan

Bog'larga eltuvchi tor ko'chasida.

Poytaxtning xilvatgoh tor ko'chasida,

Unda shinam uyning darvozasi bor.

30- yillarning oxirida Maqsud Shayxzoda qizg'in adabiy ijod bilan birga o'zbek klassik adabiyotining katta arboblari ijodini o'rganish va tashviq qilish borasida barakali mehnat qildi. Bobur, Muqimiy ijodiga bag'ishlab qator maqolalar yozdi. “Bobur – Alisher Navoiyning ulug' davomchisidir. Binobarin, u Navoiyni o'ziga doim ustoz deb bilgan.

Do'stlari viqor bilan do'stim desa arziydigan, hamkasblari iftihar bilan hamkasbim desa yarashadigan bir ajoyib inson, inson bo'lganda ham haqqi bilan shoir, haqqi bilan fozil, haqqi bilan olimi zamon bo'lgan Maqsud Shayxzoda haqida og'zimni to'ldirib so'zlagim keladi deb aytgan edi shoir Sobir Abdulla .

1958-yilda Shayxzoda o'zining mashhur “Toshkentnoma” lirik dostonini yaratdi. Ushbu doston qadimiy va ayni paytda zamonaviy Toshkent shahriga bag'ishlangan bo'lib, shoirning o'z ona yurti bo'lmish Ozarbayjondan uzoqda yashasa-da, o'zbek xalqi madaniyatiga qanchalik chuqur singib ketganini ko'rsatadi. U nafaqat lirik shoir, balki dramaturg sifatida ham yuksak iste'dod sohibi bo'lib, 1960-yilda yozgan “Mirzo Ulug'bek” tragediyasida buyuk o'zbek olimi va ma'rifatparvar hukmdorining yorqin obrazini yaratdi.

Shayxzoda tarjimon sifatida ham katta ishlarni amalga oshirgan. U Pushkinning “Mis chavandoz”, Lermontovning “Kavkaz asiri”, Mayakovskiyning “Juda soz” dostonlari va ko'plab she'rlarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan. Bundan tashqari, Shekspirning “Hamlet”, “Romeo va Julietta” tragediyalari va sonetlarini, Nozim Hikmatning she'riy asarlarini, shuningdek, ozarbayjon shoirlari ijodini ham tarjima qilgan. Uning tarjimalari faqat so'zma-so'z o'girish bilan



cheklanmay, asarlarning badiiy ruhini, estetik qiymatini saqlab qolishga qaratilgan edi.

Adib o'zbek adabiyoti tarixi, xalq og'zaki ijodi, xususan, Alisher Navoiy merosini o'rganish borasida ham muhim ilmiy tadqiqotlar olib borgan. U filologiya fanlari nomzodi unvoniga ega bo'lib, o'zbek adabiyotshunosligi rivojiga salmoqli hissa qo'shgan. Uning ilmiy ishlari nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyotshunosligida ham e'tirof etilgan.

Maqsud Shayxzoda ijodi eng gullagan paytda, shiraga to'lgan vaqtda bu olamdan ketdi. Shoir 1967-yil 19-fevralda og'ir xastalikdan so'ng vafot etdi va Toshkentning Chig'atoy qabristoniga dafn etildi. Bu qabriston O'zbekistonning eng mashhur madaniy va ilmiy arboblari qo'nim topgan muqaddas joylardan biridir. U Ozarbayjon tuprog'ida tug'ilgan bo'lsa-da, taqdir taqozosi bilan o'zbek diyoriga kelib, bu yurtida butun borlig'i bilan ijod qilib, xalq e'tirofiga sazovor bo'ldi. Uning nomi o'zbek adabiyoti tarixida abadiy saqlanib qoladi.

Xulosa: Maqsud Shayxzoda nafaqat iste'dodli shoir va dramaturg, balki milliy adabiyotimizning yirik namoyondalaridan biri sifatida tan olinadi. Uning ijodi milliy iftixor, Vatanga muhabbat, insoniylik va adolat kabi tushunchalar bilan yo'g'rilgan bo'lib, bugungi kunda ham o'z qadr-qimmatini yo'qotmagan. Shoirning asarlari, uning ma'rifiy faoliyati va tarjima merosi keyingi avlodlarga ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. U kishi ikki xalq dilbandi she'riyati cho'qqisini egallagan shoirlardandir. O'zbek xalqi doimo shunday ulug' ijodkori borligidan faxrlanadi. O'ylaymanki, biz yosh avlod va keying avlodlar ham Maqsud Shayxzoda she'riyati gulshanidagi gullaridan ifor, she'riyati va adabiyotidan esa muhabbatni his etib yashaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi – O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, Toshkent, O'zbekiston Milliy Ensiklopediya bosh tahririyati.
2. M. Qosimov. "O'zbek adabiyoti tarixi", Toshkent, Fan nashriyoti, 1985.
3. Shayxzodaning adabiy va tarjima asarlari – O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi fondlaridan olingan materiallar.